

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ANARBKOVA AYJAN AZIZBEK QIZI

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI
O'QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Anarbekova Ayjan Azizbek qizi

Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 3

Анарбекова Айжан Азизбековна

Методика развития коммуникативных компетенции будущих учителей английского языка в условиях цифрового образования..... 27

Anarbekova Ayjan Azizbekovna

The methodology of developing the communicative competences of future English teachers in the context of digital education..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok o'publikovannix rabot

List of published works 58

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ANARBKOVA AYJAN AZIZBEK QIZI

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI
O'QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped1853 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namsifl.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Isrolova Dildora Muxtarovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Ganixanova Madina Baxritdinovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "19" 12 soat 15⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28. Tel.: +99869-442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdchti@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (19 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998(69)442-11-67).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "5" 12 kuni tarqatildi.
(2024-yil "5" 12 da 19 raqamli reestr bayonnomasi).



Z.Ya.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.V.Ermirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallash, ularning tajribalarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish, fan va ta’limda kuzatilayotgan ilg‘or yutuqlar va tadqiqotlarga suyanan holda ta’lim tizimining rivojlanishini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish davr talablaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, hozirda xorijiy tillarni madaniyatlararo munosabatlar aspektida o‘qitish, o‘quv jarayoni mazmuniga madaniyatshunoslik (*Ideas of Cultural Studies*) g‘oyalari hamda madaniyatlararo kompetensiyaviy yondashuv vositasida (*Intercultural Competence Approach*) ta’lim oluvchilarga dini, millati, irqi va boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar, innovatsion ta’lim sharoitida o‘zaro hamkorlikdagi samarali faoliyat olib borish hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida ishtirok etish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash zarurati dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida ta’lim tizimida xorijiy tilni o‘qitish jarayoni samaradorligini oshirishda interfaol metodlarni qo‘llash (jumladan: Carl Wieman Science Education Initiative (CWSEI) loyihasi, Britaniya Kolumbiyasi), mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishda interfaol elektron o‘qitish tizimidan (interactive E-learn) foydalanish (Purdue University, AQSH; JCM International Management Engineering Institute, Xitoy xalq respublikasi) hamda interfaol ta’limni amalga oshirish (International Institute for Sustainable Development, BMT) bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Zero, ta’lim mazmunini umumiyevropa til bilish kompetensiyalari (Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen) va xalqaro standartlar (The Programme for International Student Assessment, Progress in International Reading Literacy Study, Teaching and Learning International Survey) darajasida tashkil etish, bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarida lingvomadaniy hamda millatlararo munosabatlarga yo‘naltirilgan shaxsiy va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali jamiyatimizda millatlararo bag‘rikenglik, baynalmillik sifatlarini qaror toptirishga qaratilgan tadqiqotlarga zarurat ortib bormoqda.

Respublikamizda ta’lim tizimining barcha bosqichlariga raqamli axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etgan holda xorijiy tillar ta’limini, uning metodikasini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, kreativ, mantiqiy mushohada, madaniyatlararo muvafaqqiyatli muloqot qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash, ularda intellektual qobiliyatlarni namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan. Bu oliy ta’lim muassasalari talabalarida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish jaryonida axborot-texnologiyalarni joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish, axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish tizimlarini yaratishning me’yoriy asoslari “Oliy ta’lim muassasalarida axborot-texnologiyalarini ta’lim jarayonida

qo‘llashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish” ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi.

Mamlakatimizda ta’lim va tarbiya jarayonini zamonaviylashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi va uning ilmiy-nazariy muammolari J.J.Jalolov, M.S.Dadaxodjaeva, D.A.Tadjibaeva, X.A.Mamatkulov, S.A.Misirov, E.T.Erkaev, M.R.Kadirova, G.K.Obidova va boshqa olimlarning ilmiy-metodik ishlarida tadqiq qilingan. Xususan, chet tillar ta’limida madaniyatlararo muloqot, uni tashkil etish, bu jarayonda shaxs muloqot madaniyatining namoyon bo‘lishi masalalari X.X.Rahimov, J.J.Jalolov, J.A.Yoqubov, S.A.Misirov, Sh.N.Ubaydullaev, Sh.Usmanova, M.Yakubbaev, Z.S.Paziljanova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan A.E.Belskaya, T.A.Baeva, S.N.Barishnikova, L.V.Dubenkova, O.I.Stepanova, N.A.Stadulskaya, V.V.Vyalix, V.M.Leychik, V.V.Shkarin¹ kabilar tomonidan

¹ Бельская А.Е. Специфика перевода английской медицинской терминологии на русский язык //Молодой ученый. – 2017. – №. 4. – С. 275-277; Баева Т.А., Богданова Н. В. Особенности обучения иностранному языку студентов медицинских вузов на современном этапе //Научное мнение. – 2014. – №. 7. – С. 311-319; Барышникова С.Н. Формирование коммуникативной компетенции в системе обучения иноязычной речевой деятельности студентов медицинских вузов: дис. – Саратов: [Саратов. военно-мед. ин-т], 2005; Дубенкова Л.В., Апухтина Л.М. Медицинская терминология: различные способы образования медицинских терминов (на примере английского языка) //Innova. – 2017. – №. 1 (6). – С. 26-30; Степанова О.И., Гулямов Х.Д. Учение Абу Али Ибн-Сино об определениях и их роли в медицинской науке //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 25 (150). – С. 4-13; Лейчик В.М. Термины и терминосистемы –пограничная область между

ta'lim muassasalarida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, terminlarni o'rgatish orqali o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish, bo'lajak pedagoglarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, talabalarga chet tilini o'rgatishning xususiyatlari kabi muammolari o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan A.Vierlaxer, E.Xoll, G.Auernheimer, D.Kaspari, D.K. Deardorff, A.A.Fantini, K.Flehsig, J.House, J.Roche, E.Shvabe, H.Follmer⁵larning ilmiy izlanishlarida talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish, chet tilini o'qitishdagi yondashuvlar, chet tillarini o'rganishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, psixologik va lingvistik jihatlarini ochib berilgan.

Tadqiqot tahlillari asosida nazariy manbalar bilan tanishib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni rivojlantirish raqamli ta'lim muhitida zamonaviy talablarga mos elektron ta'lim resurslarini amaliyotga joriy etish muammosining dolzarbligi hamda pedagogik jihatdan maxsus tadqiq qilinmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

xorijiy til ta'limida "kompetensiya", "kommunikativ kompetensiya" tushunchalarining talqiniga aniqlik kiritish;

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining pedagogik shart-sharoitlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;

bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida pedagogik va dasturli ta'lim vositalarini qo'llash asoslari va tamoyillari, ularning umumiy tuzilmasi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishga imkoniyat yaratuvchi modellashtiruvchi, o'rgatuvchi ta'lim vositalarini qo'llash asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modelini optimallashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Guliston davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika institutining jami 385 nafar talabalari jalb etildi.

искусственным и естественным в языке // Вопросы терминологии и терминологической статистики. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1996; Shkarin V.V., Grigoreva Yu.V., Goroxova N.M. O kulture ispolzovaniya nauchnoy medisinskoy leksiki (terminologii) // Nijegorodskiy medisinskiy jurnal, – №1, 2004 <http://www.medicum.nnov.ru/nmj/2004/1/31.php>).

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari filologik ta'lim yo'nalishlarida xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa, test, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni jamlash, taqqoslash, solishtirish va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy til ta'limi jarayonida "kompetensiyaviy yondashuv" tushunchasining lingvodidaktik talqini xorijiy til ta'limida sotsializatsiya va akkulturratsiya jarayonlarining lingvodidaktika bilan munosabatlarini raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlariga muvofiq belgilash asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy faollik darajasida kompetensiyaviy yondashuv va interfaol usullar asosida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari aniqlangan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan "CLIL texnologiya", "Perevernutius classroom", "IBLL texnologiya" va "Case study" kabi interfaol o'qitish metodlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida ishlab chiqish orqali mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi rivojlantirilgan;

mutaxassislik fanlarni samarali o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish algoritmi va didaktik multimediali elektron ta'lim resurslarini integratsiyalashuv darajasi barqarorligini ta'minlash asosida o'quv-metodik ta'minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalarda kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirilganlik darajasini baholashning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirilgan texnologiyasi metodik-didaktik aspektda takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol amaliy dars ishlanmalari ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari filologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tili fanini samarali o'qitish bo'yicha metodlar majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo'llangan nazariy ma'lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli ta'lim muhitida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning interfaol usullarini takomillashtirish, xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya mavzusi bo'yicha nazariy tahlil qilish natijasida olingan materiallar va tadqiqot natijalari texnologiyani takomillashtirishga xizmat qiladi, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish uchun yangi pedagogik vaziyatlarni yaratadi, shuningdek, interfaol usullar va o'qitish texnologiyasi asosida talabalar nutqiy faoliyatini shakllantirishning axborot-metodik takomillashtirilgan tizimi hamda pedagogik ta'limning turli darajalarida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning takomillashtirilgan texnologiyasi va pedagogik shart-sharoitlar majmuini amalga oshirishni ta'minlovchi dastur va ilmiy-uslubiy majmua ishlab chiqishda foydalanilishi hamda oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar hamda amaliy takliflar asosida:

xorijiy til ta'limida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va sotsializatsiya va akkulturasiya jarayonlarining lingvodidaktika bilan munosabatlarini raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlariga muvofiq belgilashga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHEIMEP raqamli "O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 27-noyabrdagi 2596/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining ijobiy natijalari aniqlashtirilgan hamda ingliz tilini o'qitish pedagogik jarayoni takomillashtirilgan;

mutaxassislik fanlarni samarali o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish algoritmi va didaktik multimediali elektron ta'lim resurslarini integratsiyalashuviga oid taklif va tavsiyalar Jizzax politexnika institutida bajarilgan OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2024-yil 20-sentyabrdagi 03-1882-1871-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz tili ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotga kirishish ko'nikmalari metodik-didaktik aspektda takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim hamda lingvistik etnosotsium muhitida xorijiy til ta'limiga madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning piramidik modeli, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan "CLIL texnologiya", "Perevernutius classroom", "IBLL texnologiya" va "Keys texnologiya"si kabi interfaol o'qitish metodlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida "Chet tili o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalari" o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'iga asosan tayyorlangan. Ro'yxatga olish raqami: 537-567). Natijada, pedagogik jarayonning samaradorlik darajasini obyektiv baholashning pragmatik, empirik va plyuralistik omillarini metodik-didaktik aspektda qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Raqqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda raqqamli transformatsiyaning ahamiyati, madaniy va verbal muloqot jamiyatning professional, raqqobatbardosh, mobil mutaxassisga bo'lgan ehtiyojini dolzarblashtirish borasida tadqiqot ishlari va adabiyotlar tahlili keltirilgan. Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda elektron ta'lim vositalarining

didaktik imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Muloqot – bu odamlar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, unda ma’lumot, tajriba, qobiliyat va faoliyat natijalari almashinuvi mavjud. Muloqot insonning murakkab kommunikativ faoliyati bo‘lib, uning subyekti va obyekti ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxsdir. Muloqot orqali odamlar bir-biri bilan bog‘lanadi, ma’lumot almashadi, o‘zaro tushunishga erishadi, bir-biriga ta’sir qiladi va ularni harakatga va biror narsa qilishga undaydi. Muloqot inson hayotining asosidir. Erkin muloqotsiz muvaffaqiyatli ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanish mumkin emas. Talaba o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini, istaklarini oson, tez va aniq ifoda eta olishi kerak. Til o‘rganishda kommunikativ jihatning asosiy maqsadi, uning asosiy shakllari va turlari bo‘yicha nutq faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston va xorijiy ta’lim hamjamiyatida “kompetentlik”, “kompetensiya” “kompetensiyaviy yondashuv” ta’riflari bo‘yicha yagona aniq va bir ma’noli tushuncha mavjud emas. Tahlil qilinadigan toifaning ko‘plab ta’riflari mavjud bo‘lib, ular konsepsiyaning o‘ziga xos murakkab, ko‘p darajali tabiati bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra, bu ishda turli olimlar va tadqiqotchilar guruhlarining muayyan dunyoqarash pozitsiyalari natijasida yuzaga keladigan ta’riflarning xilma-xilligi hisobga olingan. Tadqiqotlarga ko‘ra kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilimga yo‘naltirilgan komponent bilan tenglashtirilmaydi, balki hayotiy muammolarni hal qilish, kasbiy va asosiy funksiyalarni, ijtimoiy rollarni bajarish va kompetensiyalarga ega bo‘lishning yaxlit tajribasini o‘z ichiga oladi. B.F.Lomovning so‘zlariga ko‘ra, ingliz psixologiyasida shaxsiyat ko‘p o‘lchovlilik va ierarxiya bilan tavsiflangan ochiq maqsadli dinamik tizim sifatida qaraladi, unda muallif uchta asosiy funksional quyi tizimlarni aniqlaydi:

kognitiv jarayonlarni o‘z ichiga olgan kognitiv faoliyat (idrok, xotira, fikrlash, tasavvur va boshqalar);

tartibga solish, shu jumladan hissiy va ixtiyoriy shaxslarning xatti-harakatlariga ta’sir qilish qobiliyatini ta’minlash;

kommunikativlik o‘zga shaxslar bilan muloqat qilish, o‘zaro muloqot davomida amalga oshiriladi.

Kommunikativ kompetensiya tarkibiga to‘rtta asosiy kompetensiya kiradi. Bular *lingvistik*, *sotsiolingvistik*, *pragmatik (diskurs)* va *strategik kompetensiyalardir*. Lingvistik kompetensiya – til amaliyoti, sotsiolingvistik kompetensiya – bu nutq amaliyoti va pragmatik kompetensiya esa, xorijiy til o‘rganuvchilarning shaxsiy fazilatlarini o‘rganadi, so‘zlovchi o‘ziga noma’lum bo‘lgan leksik birliklarni muloqot davomida ushbu so‘zlarni ishlatmasdan suhbatdoshiga yetkaza olish kompetensiyasi esa strategikdir.

Kommunikativ kompetensiya lingvodidaktikada chet tilini o‘qitishning eng muhim vazifasi sifatida tan olingan bo‘lib, u o‘rganilayotgan tilni amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish sifatida tushuniladi. Kommunikativ kompetensiya – bu “o‘rganilayotgan til orqali nutq faoliyatini muayyan faoliyat sohasidagi muloqot

maqsadlari va holatiga muvofiq amalga oshirish qobiliyati”.

Xalqaro globallashuv sharoitida zamonaviy hayotning barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi, internet-texnologiyalarning keng tarqalishi bilan birga amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy va siyosiy hamjamiyatga bosqichma-bosqich kirishi yangi vazifalarni belgilab, ta’lim tizimidagi mavjud axborotlarni axborot texnologiyalari va madaniy muammolar orqali ochib berishni amalga oshirmoqda.

Bo‘ljak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli transformatsiyaning ahamiyati muhim hisoblanib, ta’limni raqamlashtirish jarayoni, axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotlarda zamonaviy raqamli texnologiyalar jamiyatni axborotlashtirish davrida pedagogika va fan metodlarining bir qismiga aylanib borayotgani qayd etiladi. Ta’lim metodologiyasi axborotga aylanib, pedagogikaning predmeti – shaxsning axborot madaniyati bo‘lgan axborot xavfsizligi, media kompetensiyasi va media madaniyatiga aylanmoqda.

Birinchidan ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan samarali raqamli texnologiyalar va vositalardan keng foydalanish boshqa ko‘plab faoliyat sohalarida tadbqiq etilgan.

Ikkinchidan ta’lim muassasalari ta’limni o‘zlashtirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etmoqda (traektoriyani tanlash, o‘quv materiallarining xilma-xilligi, qo‘shimcha ta’limdagi qiyinchiliklar), talabalarning motivatsiyasini oshirish (interfaol o‘quv materiallari, o‘quv o‘yinlari), o‘qituvchilar va tyutorlarning muntazam faoliyatini osonlashtirish (monitoring, hisobot berish, ishlarni tekshirish). Taqdim etilayotgan dasturiy hujjatlarga ko‘ra, raqamli platformalar, texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash mobaynida, yangilarining paydo bo‘lishi uchun sharoit yaratishda istiqbolli platformalarga e’tibor qaratmoqda.

Til ta’limini raqamlashtirish sharoitida xorijiy til o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish muammosi o‘z sohasining mohir, raqobatbardosh o‘qituvchilari, olimlari va metodistlarning diqqat markazida bo‘lib, oliy ta’limda xorijiy tilni o‘qitish sifati va darajasi ta’limni yangilash mafkurasining tashuvchisi bo‘lishi kerak bo‘lgan pedagogik kadrlar bilan belgilanganligi isbotlanmoqda.

Ta’limni raqamlashtirish talabalarning chet tilidagi tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, natija chet tillarini o‘qitish madaniyatini oshirishga, talabaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga imkon berganligi, shuningdek ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish uchun tegishli muhitni shakllantirishga yordam berishi ilmiy dalillar asosida keltirilgan.

Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi o‘rganilayotgan tilda va tarmoqdagi kompyuter darsliklarida haqiqiy materiallardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishi, internetda ishlayotganda talabalar va o‘qituvchilar elektron matnlar, kutubxonalariga, muzey va arxiv manbalariga, gazeta va

jurnallarning elektron versiyalariga murojaat qilishlari, tarmoq o'quv dasturlari, turli lug'atlaridan foydalanishlari; muhokamalar hamda videokonferensiyalarda ishtirok etishi raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muloqot qobiliyatlari, madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari va raqamli muhitdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Bo'lajak chet tili o'qituvchisining lingvistik raqamli kompetensiyasi tushunchasi o'zaro bog'liq ikkita konstruksiyaga ajratiladi: "lingvo" va "raqamlashtirish". "Lingvo" konstruksiya ingliz tili o'qituvchisining kommunikativ kompetensiyasi tuzilishi bilan bog'liq. Raqamli jamiyatda jadal rivojlanayotgan raqamli makondan ajratilgan holda ko'rib chiqilmaydigan o'qituvchining umumiy va madaniyatlararo muloqotida, madaniyatlararo aloqa jarayonini tushunishga jiddiy o'zgarishlar kiritadi. Raqamli muhitning ijtimoiy xususiyatlari kelajakda o'qituvchining madaniyatlararo aloqasi jarayonlarini tushunishda katta ahamiyatga ega. Chet tillarini o'qitish sohasida raqamli muhitda rivojlanayotgan jamoalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, bo'lajak o'qituvchining ko'p tilli va ko'p madaniyatli shaxsini multimedia vositalarida o'zini namoyon qilish imkoniyatlari; raqamli tuzilmalarni ishlatish nuqtai nazaridan kognitiv strategiyalar; reallik asosida raqamli muhitda olingan aloqa kompetensiyalarining faoliyati. Raqamli ko'p tilli va madaniyatlararo aloqaning o'ziga xos xususiyatlari kelajakdagi o'qituvchilarga fazoviy va vaqtinchalik cheklavlarni yengishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, raqamli ta'lim vositalari asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va madaniyatlararo aloqani rivojlantirishda samarali ta'limning o'zaro ta'siri vositasi ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda raqamli kompetensiya, odatda, tayyorlik (motivatsion, hissiy-irodaviy, munosabat-xulq-atvor sifatida tushuniladi va refleksiv komponentlar) va shaxsga kundalik hayotda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga imkon beradigan qobiliyat (bilim, ko'nikma va malakalar), shuningdek, ushbu texnologiyalarni tanqidiy baholash qobiliyati ham hisoblanadi. Ushbu konsepsiya ko'pincha raqamli madaniyatda ishtirok etish motivatsiyasini va raqamli makonda texnik ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy axborot ta'lim muhitida ingliz tilini o'qitish nazariyasi va metodikasi fani jihatidan kommunikativ kompetensiyalarni egallashda raqamli kompetensiyalar quyidagi subkompetensiyalarni qamrab oladi:

1) axborot va ommaviy axborot vositalari – raqamli ma'lumotlarni qidirish, tushunish, tartibga solish va uni tanqidiy tushunish, raqamli vositalar yordamida axborot obyektlarini yaratish qobiliyati;

2) kommunikativ – elektron aloqaning turli shakllarini (suhbatlar, bloglar, elektron pochta va boshqalarni) amalga oshirish qobiliyati;

3) texnik – turli vazifalarni hal qilish uchun texnik va dasturiy vositalardan samarali xavfsiz foydalanish qobiliyati;

4) iste'molchi – turli xil kundalik vazifalarni (muayyan hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq) hal qilish qobiliyati raqamli vositalar, shu jumladan, Internetdan samarali foydalanish vositalari o'rganilgan.

Turli tahlililar shuni ko'rsatadiki, raqamli kompetensiya – bu “shaxsning turli sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishonchli, samarali, tanqidiy va xavfsiz tanlash hamda qo'llash qobiliyati, ilmiy (tarkib, aloqa, iste'mol, texnosfera bilan ishlash) faoliyatga tayyorligi hisoblanadi. Natijada kommunikativ kompetensiyalar raqamli ta'lim sharoitida shakllanish xususiyatlarining tuzilishi yoritib berilgan.

1-jadval. Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ va raqamli kompetensiyasining tuzilishi.

Kommunikativ va raqamli kompetensiyaning tarkibiy qismlari		Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ va raqamli kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmuni
Tayyorlik	motivatsion va hissiy jihatdan	Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ va raqamli faoliyatining motivlari: hissiy, kognitiv, axloqiy, estetik va boshqalar; kommunikativ raqamli kompetensiyani yaxshilash istagi; kommunikativ raqamli rivojlanishda hissiy barqarorlik
	o'zlashtirish va xulq-atvor	Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ va raqamli faoliyatidagi mustaqillik darajasi, kommunikativ va raqamli faoliyatdagi faollik darajasi; bo'lajak o'qituvchining ko'p tilli va ko'p madaniyatli faoliyatining kommunikativ makonida ijodkorlik, innovatsiya darajasi va ongli ravishda tavakkal qilish qobiliyati
	refleksiv	Tanqidiy jarayonini tahlil qilish qobiliyati kommunikativ raqamli faoliyat, kommunikativ raqamli faoliyat natijalarini (shu jumladan, o'zlarining kommunikativ va raqamli rivojlanish jarayonini) va talabalar faoliyatini tanlash, yaratish va baholash
qobiliyat	axborot (bilim)	Raqamli faoliyat nazariyasi, terminologiyasi va tarixi, kommunikativ raqamli aloqaning jarayoni, janrlari, tarkibiy va kommunikativ xususiyatlari, shuningdek ko'p tilli va madaniyatlararo ta'limning kommunikativ raqamli makonining faoliyati sohasidagi nazariy va uslubiy bilimlar darajasi
	uslubiy ko'nikmalar	Chet tili ta'limining kommunikativ va raqamli makonida nazariy, pragmatik va uslubiy ko'nikmalar
	amaliy operatsion (bilim, ko'nikma, malaka)	Chet tillarini o'qitishning ma'lum kommunikativ va raqamli vositalarini tanlash/tarqatish, o'zlarining kommunikativ raqamli ishlanmalarini muhokama qilish, kommunikativ raqamli o'z-o'zini o'qitish qobiliyati, kommunikativ raqamli makonda ta'lim va tadqiqot faoliyatini qurish qobiliyati. Ko'p tilli, madaniyatlararo raqamli muhitda aloqa usullarini o'zlashtirish

Bizning fikrimizcha, aloqaning turli shakllarida amalga oshiriladigan o'ziga xos ko'p funksiyali vositalar to'plamini ifodalovchi "kommunikativ vositalari" toifasida alohida ma'no mavjud. Ushbu vositalarning pedagogik salohiyati ularning subyekt shaxsining intellektual, ehtiyoj-motivatsion, hissiy-irodaviy, faoliyat sohalariga kompleks ta'sir qilish imkoniyatidadir, bu umuman olganda, kasbiy shaxsni takomillashtirish jarayonining samaradorligiga yordam beradi.

Tadqiqot ishining **"Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari"** deb nomlangan ikkinchi bobida malaka oshirish jarayonlarida raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy pedagogik shartlari, shakl, metod, vositalari va bosqichlari bayon etilgan.

Bugungi kunda innovatsiyalarni joriy etish, fan va texnikaning rivojlanishi mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari ta'sir ko'rsatmoqda, va natijada xalqaro hamjamiytdagi mavqei mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, fan va texnika dunyoni bilish va interfaollik qilish, boshqa mamlakatlar, xalqlarning madaniy farqlari to'g'risida bilim olish, xalqaro aloqa ko'nikmalari hamda qobiliyatlarini rivojlantirish, shunga mos ravishda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vositasiga aylanmoqda.

Shu ma'noda, XXI asrda ingliz tilni o'rganishda ko'p darajali va ko'p tarmoqli yondashuv g'oyasining genezisi (kelib chiqishi), ingliz tili va o'rganilayotgan fanlarning mazmunini integratsiya qilish bilan ikki tilli ta'lim texnologiyasi, bilim nazariyasi va bilimlarni rivojlantirish nazariyasi sifatida konstruktivizm xususiyatlari hamda muammoning nazariy va amaliyotdagi holati yuzasidan mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqot davomida chet tillarini o'qitishning xorijiy tajribasi, shu jumladan madaniyatlararo samarali kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'rganib chiqilgan. Natijada chet tillarini o'qitish amaliyotida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan noan'anaviy interfaol ta'lim texnologiyalari mazmunan yoritib berilgan.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda **CLIL texnologiyasi, perevernutius auditoriya texnologiyasi, keys texnologiyasi, IBLL texnologiyasi, simulyatsiya o'yin** texnologiyasi kabi interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi bayon qilingan.


Tadqiqotlar jarayonida mazkur muammoning turli jihatlarini pedagog, psixolog, metodist, lingvist olimlarning tadqiqot ishlarida tadqiq etilganligi aniqlandi.

Fan – til integratsiyasini amalga oshirishda ikki asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatishadi:

- mazmunni o'rganishga qaratilgan ta'lim, ya'ni o'quv jarayoni, birinchi navbatda, fan mazmunini o'rganishga qaratilgan;

- asosan til o'rganishga asoslangan ta'lim – asosiy e'tibor fan mazmuni asosida xorijiy tilni o'rganishga qaratilgan.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kommunikativ kompetensiyalarining muhim vositasi mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minoti hisoblanadi. Ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar: zamonaviy til o'rgatuvchi vositalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, o'quv-metodik ishlanmalar, taqdimotlar talabalarda ishlash uchun ijodiy yondashuvni shakllantirish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyani shakllantirish imkonini beradi. Vositalar ro'yxatini belgilashda har bir mavzu mazmun maqsadini batafsil o'rganib, tahlil qilib, keyin belgilash lozim. Tadqiqot jarayonida biz tomonimizdan o'quv rejaga kiritilgan mutaxassislik fanlarni o'zlashtirish uchun ma'lum shart-sharoitlar, qo'llanmalar, metodlar, vositalar tizimlari ishlab chiqilgan (1-rasm).



1-rasm. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda foydalaniladigan elektron ta'lim vositalari

CLIL (Content and Language Integration Learning) texnologiyasining asosiy maqsadi talabalarni chet tilidan aloqa vositasi sifatida foydalangan holda mutaxassislik fanlarning mazmuni va metodikasi bilan tanishtirish hisoblanadi. CLIL texnologiyasiga asoslangan samarali dars quyidagi kompetensiyalarni o'z ichiga olishi kerak: "4 C" elementlari: madaniyat, aloqa, konstruksiya, bilish.

"Perevernutius auditoriya" texnologiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u muammoga yo'naltirilgan ta'lim, faol o'rganish va hamkorlikda

o'rganishni o'z ichiga oladi. Talabalar asosiy bilimlarni oladilar, keyinchalik u bilimlar ma'lum ko'nikmalarni egallash uchun interfaol vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi

IBLL (Inquiry – Based Language Learning) texnologiyasi yordamida talabalar o'qituvchi yordamida darsni puxta o'zlashtirishidan iborat: tadqiqot o'tkazish uchun vaqt va qoidalarni aniqlash, o'qitish vositalari (ensiklopediyalar, lug'atlar, darsliklar, madaniy semantikaga ega haqiqiy matnlar, tegishli ishchi varaqlar lug'at va hokazo).

“Case-study” – inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who?), Qachon? (When?), Qayerda? (Where?), Nima uchun? (Why?), Qanday?/ Qanaqa? (How?), Nima-natija? (What?).

Ingliz tilini o'rganishda ingliz tili grammatikasining “Shotlandiya va Uels variantlari” mavzusida amaliy mashg'ulot darsida **Case-study** texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Ushbu mavzuda guruh talabalari multimediya ilovalaridan foydalangan holda taqdimot kabi vizual usul bilan tanishib, parlament yig'ilishida Uelslik siyosatchi Jonatan Edvardson bilan sodir bo'lgan haqiqiy voqeani o'rganib chiqib, talabalar muammoni shakllantirishga va madaniyatlararo munosabatlarning asosiy sabablarini aniqlashga taklif qilinadi. Parlament yig'ilishida yuzaga kelgan mojaro. Rol o'ynash jarayonida talabalar asosiy vaziyat muammosini ta'kidlash uchun “parlament a'zolari rolini o'ynashlari” kerak. Keyin talabalar kommunikativ muammoni aqliy hujum shaklida hal qilish bo'yicha bir qator tadbirlarni belgilashlari va shu bilan ushbu ishning bir yoki bir nechta yechimlarini topish uchun g'oyalarni ijodiy tahlil qilishlari lozim.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda turli interfaol metodlardan foydalanish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-faoliyat va ta'sirchan tarkibiy qismlarini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil etish orqali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega. Masalan, “Og'zaki va yozma nutq amaliyoti” o'quv fani doirasida mavzularni o'rganishning integratsiya bosqichida **“Escape artists”** (haqiqatdan qochish) mavzusini o'rganishda “oroldagi o'yin” taqlid o'yin texnologiyasidan foydalanilgan. Bu o'yin texnologiyasi o'z tartibida 11 ta rolni ijro etishni talab etadi. Bunda ishtirokchilarga mashg'ulot o'tkazishining shartlari aytib o'tiladi.

Talabalar til darajasi (minimal darajasi B2 – “yuqoridan o'rtacha”) bo'lganda qo'llash samarali natija beradi, vaqt (2 akademik soat), darsning maqsadi (madaniyatlararo o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirish, boshqa madaniyatlarni bilish va qabul qilishga xulq-atvor munosabati), til (ingliz tili), jarayon (guruhli, juftlik ishi), tayyorgarlik (og'zaki ko'rsatma asosida), maqsad (turli g'oyalar

talabalarning e'tiborini jalb qilishi va ularning taqlid o'yin faoliyatiga qiziqishni oshirish), boshqaruv (og'zaki ko'rsatmalar asosida), qo'llab-quvvatlash (o'qituvchi talabalarga rahbarlik qiladi), izohlar (taqlid o'yin faoliyati jarayonidagi har qanday qiyinchiliklar haqida umumiy qiziqish yoki sharhlar beriladi) va farqlar (talabalarni tayyorlashning turli darajalari).

“Orol o'yini” simulyatsiya o'yin texnologiyasining mohiyati quyidagicha: talabalardan turli millat talabalari guruhini tuzish orqali o'zlarini vulqon faolligi bo'lgan orolga tushib qolganliklarini fantaziya asosida his qilishni talab eadi. Vulqon 30-60 daqiqada otilishi mumkin, shuning uchun talabalar tezda qochish rejasini ishlab chiqishlari kerak. Yaqin atrofdagi orollarning xavfsizligiga erishish uchun ularning ixtiyorida qutqaruv qayiqlari bor bo'ladi. Talabalar har bir qayiqning yo'nalishini, sonini va milliy tarkibini aniqlashlari kerak. Keyinchalik, har bir guruh talabalari o'zlarining yangi orolida ma'lum bir siyosiy tuzilishga ega bo'lgan jamiyatni rivojlantirishlari lozim, Orol aholisining milliy tarkibini hisobga olgan holda ko'rsatmalar yoki konstitutsiya ishlab chiqishi shart.

Tadqiqotimizda qo'yilgan muammoni yechish uchun raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish va uni ilmiy asoslash zarur. Chunki, bugungi kunda ta'lim tizimida interfaol ta'lim metodlari, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.


Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish mazmunining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash asosida samaradorlik natijasi aniqlanib baholandi va amaliy modeli takomillashtirildi (2-rasm). Modelni ishlab chiqishda modellashtirish nazariyasida qabul qilingan modellarni qurish bosqichlariga amal qilindi va modelning uni qurish bilan bog'liq boshqa xarakteristikalar e'tiborga olindi.

Ushbu model samaradorligi quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv ta'lim muassalarida tashkil etiladigan pedagogik ahamiyat kasb etadigan barcha jarayonlar majmui yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi;

- mazkur jarayonda belgilangan vazifalar mazmun-mohiyatini har bir pedagog kadrda tushuntirish orqali o'zini-o'zi boshqarish hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvni joriy qilish taqozo etadi va o'zga tilli amaliy kommunikativ tajribani ham o'z ichiga oladi;

- raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish mutaxassislik fanlarini o'qitish davomida olib borildi.



2-rasm. Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Kompetensiyaviy yondashuvini amalga oshirish o'quv tizimini uning barcha tarkibiy qismlarining kasbiy va pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga, yo'naltirishda hamda asosiy komponent sifatida kasbiy va kommunikativ kompetensiyani taqsimlashda namoyon bo'ladi. Kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonini haqiqiyga yaqin bo'lgan kommunikativ faoliyat orqali aniq namoyish etadi, bu o'rganilayotgan tilning lingvistik madaniyatini obyektiv bilish bilan baholanadi. Kompetensiyaviy yondashuv kelajakda ingliz tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga imkon beradi.

Biz tadqiq etayotgan bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyasining tuzilishiga asoslanib, biz ushbu kompetensiya amalga oshiriladigan kasbiy pedagogik faoliyatning bir qator funksiyalarini aniqladik. Ingliz tili o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyasining yuqorida aytib o'tilgan tarkibiy qismlari ushbu funksiyalarning bajarilishiga ta'sir qiladi.

Biz aniqlagan funksiyalarni ikki guruhga ajratamiz: *maqsadlarni belgilash va operatsion-tarkibiy* funksiyalar. Belgilangan pedagogik funksiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish tegishli umumiy pedagogik va uslubiy ko'nikmalar tizimiga va zarur bilimlarga ega bo'lishni nazarda tutadi.

Maqsadni belgilash funksiyalariga: *o'qitish funksiyasi, pedagogik funksiyani rivojlantirish, tarbiyalash funksiyasi*; Operatsion va tarkibiy funksiyalarga: *gnostik funksiya, konstruktiv rejalashtirish funksiyasi, tashkiliy funksiya, madaniyatlararo aloqa tashkilotchisining funksiyasi va boshqarish funksiyasi* kiradi. Bizning fikrimizcha, ushbu funksiyalar – bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ongida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bizning tushunchamizda bu o'qituvchi faoliyatining eng muhim jihatlarini modellashtirishga imkon beradigan va chet tili o'qituvchisining asosiy funksiyalarini bajarilishini ta'minlaydigan kommunikativ ko'nikmalarni yanada muvaffaqiyatli egallashga hissa qo'shadigan asosiy tamoyillariga tayanishni anglatadi.

Ushbu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat: 1) kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda onglilik tamoyili; 2) kasbiy va pedagogik sohadagi funksionallik tamoyili; 3) kommunikativ vaziyatlilik tamoyili; 4) kasbiy va pedagogik muloqot sharoitida chet tilini ijodiy qo'llash tamoyili; 5) ko'p funksionallik tamoyili; 6) chet tilini o'qitish jarayonini professional yo'naltirilgan rol asosida tashkil etish tamoyili; 7) kasbiy va kommunikativ kompetensiyani egallash uchun talabalar faoliyatining o'quv va darsdan tashqari shakllarini birlashtirish tamoyili; 8) lingvistik va uslubiy tayyorgarlikning fanlararo aloqa tamoyili.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyasini baholash darajalar tavsifi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqar ekanmiz:

birinchidan, individual sifatlarni rivojlantirish shaxsning integrativ tavsifi sifatida, o'zida individual yondashuvning barcha sohalaridagi bilim va ko'nikmalarning umumlashtirilishi;

ikkinchidan esa kommunikativ kompetensiyaning erishilgan darajasini tashhis qilish va uni rivojlantirish jarayonining ta'sir etuvchi omillariga zaruriy shart-sharoitlar yaratish orqali o'rganish muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotimiz davomida biz lingvistik jihatdan talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning uchta darajasini ham aniqladik, xususan: **1) Zaruriy; 2) Optimal; 3) Maksimal.**

